



CHINGIZ AHMAROV ASARLARIGA MUROJAT QILGAN HOLDA O'ZBEK MILLIY AYOLLAR LIBOS LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH

Umarov Ilhom Ibrohimovich¹,
Oxundedayev Xojiakbar Mahamadali o'g'li²,
Bahodirova Mohinur Jahongir qizi³

¹ Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Dizayn" kafedrası
katta o'qituvchisi, ² Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI doktoranti

³ Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Dizayn" yo'nalishi
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6585372>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022
Ma'qullandi: 14-may 2022
Chop etildi: 26-may 2022

KALIT SO'ZLAR

Rang, dizayn, kolorit, ko'k, ijodkor, binafsha, kompozitsiya, kontrast, tus, uslub, issiq va sovuq ranglar. Alisher Navoiy, Chingiz Ahmarov, Sab'ai sayyor, Yetti go'zal

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq rassomi, mahobatli rangtasvirchi Chingiz ahmarovning rangtasvir asarini ijodiy manbaa sifatida foydalanib "Casual" uslubidagi o'zbek milliy ayollar libosi loyihasini bajarilishi va unda foydalanilgan jihatlar haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari naqshlar haqida ham qisqacha tushinirishlar keltirib o'tilgan. Libos loyihasining eskizlari ilova sifatida ko'rsatib o'tilgan. Loyihani faqat eskizlar misolida ko'rsatib berilgan. Loyiha eskizlarning ranglari va detallari haqida ham so'z yuritilgan.

Xozirgi zamonaviy O'zbekistonda yengil sanoat mahsulotlari hususan kiyim, libos va moda sanoatiga bo'lgan qiziqish va uni ishlab chiqarishga bo'lgan e'tibor yuqori darajalarga ko'tarilib bormoqda. Yosh dizaynerlar uchun har tomonlama sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunga misol qilib har yili respublikamizda o'tkazilayotgan moda va sanoat haftaliklarini, chet mamlakatlarda o'tkazilayotgan liboslar namoyishlarida ishtirok etish imkonini va bunday tadbirlar yuqori saviyada o'tkazilishini aytish mumkin. Biz ham shunday yosh dizaynerlar qatorida turli hil yo'nalish va uslublarda kolleksiyalarni amalga oshirib kelmoqdamiz. Shularni davomi sifatida yangi eskiz loyihasini taqdim etmoqimiz. Bu

loyihamizda milliy san'atimizga asoslangan "Casual" uslubida ayollar ustki kiyimlarini ishlab chiqdik. Ijodiy manbaa sifatida O'zbekiston xalq rassomi, mahobatli rangtasvirchi rassom Chingiz Ahmarovning "Yetti go'zal" asarini oldik. Chingiz Ahmarovning ijodiga nazar soladigan bo'lsak, rassom asosan ijodiy manbaa sifatida Alisher Navoiyning asarlariga murojat qilganini ko'rishimiz mumkin. Biz ijodiy manbaa sifatida foydalangan "Yetti go'zal" rangtasvir asari Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida keltirilgan. "Sab'ai sayyor" dostonida keltirilgan yetti o'lka go'zallarini Chingiz Ahmarov talqinida chinakam pariga aylangan Sharq ayolining bor jozibasi, latofati, hayosi, nafosati, viqorini bu qadar tabiiy, iymamayotgan



navniholdek tasvirlab berganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu rassomning ijodiy yondashuvidan va uslubidan ta'sirlangan holda bizning libos loyihamizning bezak va rang falsafasi shakllandi. Bundan tashqari libos loyihamizda o'zbek milliy naqsh ornament va naqsh elementlaridan foydalandik. Naqsh – qismlari muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo'ladigan handosiy shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak.

Naqshning paydo bo'lishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Naqsh tarixi insoniyatning badiiy madaniyati kabi qadimiydir. Arxeologik materiallar naqshining jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Naqsh turli o'lkalar, turli xalqlarda geografik muhit, o'simlik va hayvonot dunyosi madaniyati ta'sirida rivoj topgan. Naqshlar islamiy va girix naqshlarga bo'linadi. Bizning eskizimizda girix naqshlaridan foydalanilgan.

Girix – murakkab handasiy naqsh, me'morlik va badiiy hunarmandchilikda keng ishlatiladi. Naqsh asosi uchburchak, to'rtburchak, murabba, aylana va yoy shakli taqsimlaridan tashkil topadi. O'zbekiston hududidagi me'moriy obidalaridan, xususan X-asrda Arabota maqbarasi, Mirsaid Bahrom, Registon maydonidagi madrasalarning bezaklarida girix naqshlarini ko'plab kuzatishimiz mumkin.

Eskizdagi libos ranglariga e'tibor qaratsak asosiy kolorid sariq ranglardan ya'ni lajuvard rangidan tashkil topgan. Aynan shu rangdan foydalanishimizning sababi Chingiz Ahmarovning ishlarini kuzatishimiz natijasida va rassomning asarlarida aynan mana shu rang koloritida

ekanligini guvohi bo'ldik. Rassom ijodida asosan moviy, yashil, feruzarang, binafsha rangi, lojuvard ranglarni kuzatish mumkin. Eskiz loyihasidagi liboslar konstruksiyasiga e'tibor qaratsak biz bunda qadimgi o'zbek milliy cho'ponlar bichimlariga zamonaviy bichimlar aralashtirilgan, ya'ni milliylikni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirilgan. Bu esa aynan hozirgi zamon talabiga muvofiq qiziqarli yangi ko'rinish kasb etadi. Bu liboslar loyihasi asosan yosh ayollarga hususan 18-25 yoshdagi ayol-qizlar uchun "Casual" uslubida bo'ladi. Bu uslubda chegar yo'q va aynan kundalik libos sifatida ham kiyish mumkin. "Casual" uslubida liboslar ko'p va deyarli barchamiz mana shu uslubda kiyinamiz, biroq yangi eskiz loyihasida o'zbek xalqining milliylikni aks ettirgan holda bo'lganligi yangilik va hozirgi yoshlar uchun ham qadryat va an'analarni targ'ib etishda muhim biro mil sifatida hizmat qilishi mumkin. Eskiz loyihasini ishlash jarayoniga kelsak birinchi navbatda liboslarni togri joylastirishga, bir biriga mutanosibligiga e'tibor qaratilgan. 7 ta libosdan tashkil topgan kolleksiya ekanligini inobatga olgan holda liboslarni bir birini takrorlamasligi va ayni vaqtda uyg'un bo'lishiga harakat qilingan. Eskizdagi fakturalar ya'ni naqshlar hamda ijodiy manbani to'g'ri joylashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari kolleksiyani boyitish maqsadida qo'shimcha aksessuarlar ya'ni sumka, zirak kabi taqinchoqlardan foydalanilgan. Taqinchoqlar zargarlik san'atida yaratilgan bezak buyumlari har qanday ayollar liboslarini, yaratilgan obrazni taqinchoqlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa tarixdan ma'lumki o'zbek ayollari juda chiroyli va bejirim bo'lgan

taqinchoqlardan foydalanishgan. Libos eskizida qo'shimcha aksessuar ya'ni sumkalarda ham libos uchun tanlangan faktura va ijodiy manbadan foydalanish

uyg'unlikni ta'minlab bergan. Eskiz kollrksiyasini yaratish jarayonida har tomonlama e'tibor bilan ishlashga harakat qilingan.



References:

1. Raufov Yo . Naqqoshlik.T. 1973
2. Zohidov P . Me'mor olami.T. 2001.
3. O'zbekiston san'ati.T.2001.
4. Umarov A, Chingiz Ahmarov.T.1974.